

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LİM VAZİRLİĞİ

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI  
MUHANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

Sotsial- iqtisodiy kartografiya fani

# REFERAT

**Mavzu: Aholiga xizmat ko`rsatish  
sohalar geografiyasi**

Bajargan: 48-12 guruh talabasi Nurmetov J.

Qobil qilgan: kata oqituvchi R.Ye. Gulmurzayeva

**Toshkent– 2015**

## **Aholiga xizmat kursatish sohalar geografiyasи**

Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan aholini o'rganishga iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiya kurslarida hamisha alohida ahamiyat berib kelingan. Chunki mamlakat, uning iqtisodiy nohiyalari xalq xo'jaligini hududiy tashkil qilish va rivojlantirishda aholining soni, tarkibi, takror barpo qilinishi rejimi, ishlab chiqarish malakalari, migratsion harakati, hududiy joyylanishi xususiyatlari kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, aholi ko'pgina xususiyalariga ko'ra mamlakatning turli mintaqalarida bir – biridan farq qiladi. Aholining takror barpo qilinishi ko'rsatkichlari yosh va jinsiy tarkibi, iqtisodiy faol aholining xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, aholining hududiy taqsimlanishi va urbanizatsiya jarayoni O'zbekistonda ko'pgina o'ziga xos tomonlari bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston mehnat resurslarining soni, salmog'i va o'sish sur'atlari, ularning xalq xo'jaligi tarmoqlarida va respublika hududida taqsimlanishi, nihoyat, mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi o'ziga xosdir.

Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan O'zbekiston aholisi tarkibida yosh avlod salmog'ining ko'p bo'lishi, o'z navbatida, mehnat yoshidagi aholi salmog'ining nisbatan kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, tabiiy o'sishning yuqoriligi unda mehnat resurslari sonining doimo ko'payib borishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, mehnat yoshidagi butun aholi ishlab chiqarishda turli sabablarga ko'ra ishtirok etolmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish, armiya xizmatini o'tash, ishslashga sog'lig'i yo'l bermasligi kabi ob'ektiv sabablardan tashqari, turli sub'ektiv sabablarga ko'ra ham ba'zilar ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmasligi mumkin. Ko'p bolali onalarning oilada bola tarbiyasi, shuningdek shaxsiy xo'jalik yumushlari bilan bandligi O'zbekistonga xos odatiy sub'ektiv xususiyatdirki, mehnat resruslaridan foydalanish balansini hisobga olishda bu haqiqat nazardan chetda qolmasligi kerak.

O'zbekiston ko'p bolali oilalar salmog'ining kattaligi bilan ajralib turadi. Ko'p bolalar ko'rib, ularni voyaga etkazish va tarbiyalash esa jamiyat uchun foydali mehnat hisoblanadi.


Kelajakda sanoat mehnatining roli va salmog'i yanada oshib boradi. Respublikada boy yoqilg'i – energetika va mineral xom ashyo resurslarining mavjudligi, mustaqil O'zbekistonning rivojlanish ehtiyojlari buning garovidir.

İjtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining xalq xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishida respublikamizga xos yana bir xususiyat – qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning ko'pligidir. Respublikamizda qishloq xo'jaligida band bo'lganlar iqtisodiy faol aholining 38,4% ini tashkil etadi, bu tarmoq barcha tarmoqlar orasida ishda qatnashuvchilar salmog'iga ko'ra birinchi o'rinda turadi.

## СОГЛИКНИ САКЛАШ



## МАДАНИЙ



## **Aholiga xizmat ko`rsatish muhim sohalari**

### **1.1. Sog'liqni saqlash**

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining asosiy vazifasi kasalliklarning oldini olish, xastalarni davolab, darddan forig' qilish, yashash muhitini sog'lomlashtirish va boshqalar. Bunda u xalq tabobatining boy an'analariga, ilm – fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga, olim va mutaxassislarning zakovatu salohiyatiga suyanadi.

Sog'liqni saqlash ishining nazariyasi va amaliyoti Sharqda, xususan O'zbekistonda uzoq tarixga ega. Ayniqsa o'rta asrda bu erda tabobat ilmida yuqori bosqichlarga erishildi. Shu davrda yunon va b. tillardan qadimiy tibbiy asarlar arab tiliga tarjima etilib, ulardagi tavsiyalar amaliyotda qo'llana boshladi. Ayni vaqtida Sharq mutafakkirlari tabobat ilmidan jahonshumul asarlar yaratdilar. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning «Tibbiyotda dorishunosli» («Kitob as – saydana fi – t – tib»), Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» («Al Qonun fi-t-tib») asarlari mashhur bo'lib, jahon tabobatida uzoq davrlardan beri asosiy qo'llanma bo'lib keldi («Fani» bo'limining Tibbiyot fanlariga q.). ayniqsa İbn Sino davolashning yangi usullarini qo'llab tabib (hakim) sifatida o'z davrida juda mashhur bo'ldi. Keyingi davrlarda ham tabiblik Turkistonda sog'liqni saqlashning asosiy shakli bo'lib keldi. Tabiblar tegishli madrasalarda ta'lim olishgan yoki ustoz – shogidlik yo'li bilan turli kasalliklarga, siniq – chiqiqlar, yara – jarohatlarga davo qilishni, xastaliklarning oldini olishni o'rganishgan. Ularning ko'plari ham bemorlarni ko'rib, ham doridarmonlar tayyorlashgan. Sohibqiron Amir Temur boshqa ma'rifiy ishlar qatori yurtda sog'liqni saqlash ishiga ham alohida e'tibor bergen. Boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan. Saroyning xos tabiblari, shu paytgacha yozib kelinganidek, faqat saroy ahliga emas, keng ommaga ham holi – qudrat xizmat ko'rsatishgan.

Movarounnahr va Xurosonda hammomlar qatori shifoxonalar uchun maxsus binolar qurilgan. Shifoxona binolari 8 – 9-asrlardayoq qurilib, 15 – asrda Samarqand,

Buxoro kabi shaharlarda keng tarqalgan. Bunday jamoat shifoxonasi «Dor ush-shifo» («Davolash uyi») nomi bilan yuritilib, ularda zamonasining bilimdon tabiblari bemorlarni davolaganlar. «Dor ush–shifo» da maxsus dorixonalar bo’lib, ularda doripazlar bemorlar uchun dori – darmonlar tayyorlab berganlar. Aksariyat shifoxonalarda tabib va hakimlar bemorlarni davolashdan tashqari tabbat ilmi bilan ham shug’ullanganlar. Shifoxonalar ochishga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergen. Xalq salomatligi yo’lida qayg’urgan Navoiy inoyati bilan Hirot va shaharlarda yirik shifoxonalar, hammomlar qurilgan.

Manbalardan ma’lum bo’lishicha, keyingi yillarda ham Turkistonning ba’zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo’lganligi qayd etilgan. Xususan mashhur adib Vosifiy Zayniddin Mahmud (1485 – 1551) «Nodir voqealar» («Badoe’ ul-vaqoe’») asarida Toshkentning shahar qo’rg’onidan tashqaridagi Kaykovus chorbog’i haqida qiziqarli voqealarni bayon qilib, bu erda xon va sultonlar uchun shifoxona bo’lganligini yozgan. U davrlarda suv, havo, osmon, er tozaligiga, ya’ni biz tushungi ekologiyaga ahamiyat berilgan. Bungi islom dinidagi «uvol», «harom va halol» tushunchalari ham katta ta’sir ko’rsatgan (Tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish). Shuning uchun ham kasallik insbatan uncha ko’p tarqalmagan. Keyingi davrlarda mamlakatning ijtimoiy – siyosiy hayotidagi o’zgarishlar sog’liqni saqlash ishiga ham o’z ta’sirini ko’rsatdi. Turmush yomonlashgan davrlarda o’z – o’zidan sog’liqni saqlash ishlari ham yomonlashdi. Aholi yashaydigan joylarning ozodalikka xilof holati yuqumli kasalliklar (chin chechak, vabo, bezgak, sil va boshqalar)ning goho ko’plab tarqalishiga va aholining yoppasiga kirilib ketishiga sabab bo’ldi.

Turkistonni chor Rossiyasi bosib olganidan keyin G’arbga xos tibbiy muassasalar o’lkaga kirib keldi. Podsho hukumati Turkistondagi o’z qo’shinlarining manfaatini ko’zlab 1868 yili Toshkentda harbiylar va amaldorlar uchun kasalxonalar (lazaret) ochdi. Keyinchalik boshqa shaharlarda ham katta – kichik kasalxonalar, shifoxonalar ochila boshladи. 1872 yil Samarqandda, 1873 yil Xivada, 1891 yili Buxoroda kichikroq kasalxonalar ochildi. Lekin ular asosan davlat xizmatchilari, rus

fuqarolariga xizmat ko'rsatar edi. Xususan ayollarga tug'ruqxona yoki kasalxonada tibbiy xizmat ko'rsatish ishi uzoq vaqtgacha uyushmagan holda qolib ketaverdi. Faqat 1880 yili Toshkentda xayriya yo'li bilan atigi 4 o'rinli tug'ruqxona tashkil etildi, ayollar va bolalarga mo'ljallangan ambulatoriyalar ochildi. Mehnatni muhofaza qilish, sog'lijni saqlashga doir uyushgan muntazam tizim yo'qligi uchun sobiq turkiston tuprog'ida ko'pgina yuqumli kasalliklar haddan tashqari ko'p uchrar, ba'zida epidemiya holiga kirib, qanchadan – qancha kishilarning yostig'ini quritar edi. Chunonchi, 1872 yildagi vabo epidemiyasi vaqtida Turkiston o'lkasida 38 ming kishi nobud bo'ldi. 1892 yildan buyon 6 marta vabo epidemiyasi bo'lib, har safar minglab kishilarni nobud qilib ketadi. O'lkada bezgak, yomon jarohat (teri leyshmaniozi), traxoma, rishta va kasalliklar ham ancha ko'p uchrar edi. Masalan, Buxorodek katta shahar aholisining beshdan bir qismidan ko'prog'i rishta kasalligiga giriftor bo'lgan.

20 – asrning boshlarida Turkistonda hammasi bo'lib 64 ta kichik kasalxona, 65 ta ambulatoriya, 10 ta feldsherlik punkt iva 30 dan ortiq xususiy dorixona ochildi. Tibbiy xodimlar, ayniqsa, vrachlar etishmasdi (o'lkada hammasi bo'lib 102 nafar vrach, 171 nafar feldsher, 63 nafar akusherka, 39 nafar stomatolog, 80 nafar dorishunos ishlar edi). Tibbiyotga oid ilmiy muassalar va maxsus o'quv yurtlari yo'q edi.

İnqilobdan keyin Turkistondagi mavjud kasalxona, ambulatoriyalar va tibbiy muassasalar davlat tasarrufiga o'tkazildi. Sog'lijni saqlash xalq komissarligi tuzilib, tibbiyotga aloqador muassasa va tashkilotlarning hammasi shu komissarlik ixtiyoriga berildi. Viloyat va shaharlardagi ijroiya qo'mitalari qoshida mahalliy kengashning sog'lijni saqlash bo'limlari tuzildi, tashkiliy jihatdan bir qadar uyushgan sog'lijni saqlash davlat tizimi yuzaga keldi.

İnqilobdan keyingi dastlabki yillarda ancha tarqalgan vabo, toshmali terlama singari kasalliklarga va Turkistonning ko'pgina joylarida boshlangan ochlikka qarshi o'sha yillarda sog'lijni saqlash tizimining markaziy organlari oldiga ham, mahalliy

organlari oldiga ham katta vazifalar qo'ydi. Davolash va epidemiyalarga qarshi kurash ishlariga mo'ljallab sayyor ortyadlar tuzildi, bakteriologik laboratoriylar ishga tushirildi. Epidemik kasalliklar bilan og'igan kishilarni davolash uchun o'lkada umumiy o'rirlarning soni 7 mingga boradigan kasalxonalar ochildi. O'lkada chin chechak, vabo, rishta, bezgak, traxoma, yomon jarohat singari kasalliklar asosan tugatildi, sil, teri kasalliklari va sezilarli darajada kamaytirildi.

O'lkada sog'liqni saqlash tizimining moddiy – texnik bazasi ancha kengaytirilib, mustahkamlandi. Toshkentdagi yirik kasalxonalarda tor doirada ixtisoslashgan bo'limlar, ko'z, quloq, asab kasalliklari bo'limlari va toshkil etildi. Samarqandda yangi kasalxona, Qo'qonda bolalar kasalxonasi, Farg'onada bemorlarni fizik metodlar bilan davolovchi maxsus shifoxona ochildi. Toshkentda mavjud bo'lgan kichik xususiy fizioterapevtik kasalxona negizida 1919 yil 150 o'ringa mo'ljallangan fizik metodlar bilan davolash instituti (hozirgi salomatliknitiklash va fizioterapiya ilmiy – tadqiqot instituti) barpo etildi. 1920 yil Toshkentda bakteriologiya institut iva silga qarshi dastlabki dispanser ochildi. 1922 yili vrachlik – sanitariya nazorati tashkiloti tuzildi. 1924 yil Toshkentda teri – tanosil kasalliklari dispanseri, Buxoroda esa tropik tabobat instituti ochildi. 1924 yilga kelib Turkistonda 6 tropik va ularning joylardagi tarmoqlari ishlab turdi. 1924 yili respublikada 53 kasalxona, 151 ambulatoriya muassasi (shularning 79 tasi qishloq joylarida), 40 feldsherlik punkt iva muassasalar bor edi. Bir qancha joylarda ayollar va bolalar konsultatsiyalari, yaslilar, go'daklar uylari ochildi. O'sha paytlarda respublikada 371 nafar vrach, 412 nafar o'rtta ma'lumotli tibbiy xodim, 223 nafar farmatsevt ishladi.

Tibbiy kadrlar etishmaganligi uchun tibbiy ta'limni yo'lga qo'yish va mahalliy aholidan tib mutaxassislari tayyorlashga kirishildi. 1918 yildayoq Toshkentda dastlabki tibbiyot o'quv yurti hozirgi Oxunboboev nomidagi tibbiyot bilim yurti, oradan bir yil o'tib, oliy tibbiyot maktabi ochildi, feldsherlik kurslari, qisqa muddat o'qitiladigan jarrohlik kurslari, shafqat hamshiralari kurslari tashkil etildi. Oliy

tibbiyot maktabi 1920 yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti tarkibidagi tibbiyot fyakultetiga aylantirildi. Bu fakultetda o'qishga yoshlarni tayyorlash uchun respublikaning ko'pgina shaharlarida ishchi fakultetlari ochilib, ularga o'zbek yigit – qizlari jalb etildi. O'rta Osiyo Davlat universiteti oliy ma'lumotli tib xodimlari tayyorlashdagina emas, balki joylarda yangi tibbiyot o'quv yurtlari ochishda ham kata rol o'ynadi. 1925 yil viloyatlarning markazlarida tibbiyot markazlari ochildi. Universitetning tibbiyot fakulteti 1931 yili qayta tashkil etilib, mustaqil tibbiyot instituti (hozirgi ToshMI)ga aylantirildi. Samarqandda ham tibbiyot instituti ochildi. 1932 yili Toshkentda O'rta Osiyo vrachlar malakasini oshirish instituti tashkil etildi. 1937 yili Toshkentda farmatsevtika instituti ish boshladi. Ayni vaqtida ilmiy tadqiqot institutlari ham barpo etildi. 1937 yili Toshkentda sil, qon quyish, o'pka tabobati institutlari bor edi va sanoat korxonalari va qishloq joylariga ko'plab vrachlar yuborildi, shahar va qishloqlarda yangi kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar ochildi, sof havo va xushmanzarali joylarda iqlimiyl kurortlar, shifoxonalar barpo etildi.

1940 yilga kelib O'zbekistonda aholining kasallanishi 1932 yildagiga qaraganda 5 baravar kamaydi. Kasalxona muassasalarining soni endi 368 taga etdi, shularning 220 tasi qishloq joylarida edi.

Turkistonda birinchi dorixona dastlab 1874 yili Toshkent shahrida ochilgan bo'lsa, hozirgi O'zbekistonda 3980 dan ortiq dorixona mavjud. Oliy va o'rta ma'lumotli farmatsevtlar va provizorlar soni ham ancha ko'paydi: 1995 yili O'zbekistonda 4405 farmatsevt, 340 provizor aholini dori – darmonlar bilan ta'minlash ishida band bo'ldi. O'zbekistonda dori – darmonlar, tibbiy uskuna va apparatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida 1992 yili farmakologiya va farmakopiya qyamitalari tuzildi. 1993 yili «Farmindustriya» kontserni tashukil etildi.

Jahoning bir qancha etakchi firmalari bilan, chunonchi Ispaniya, Italiya, Germaniya, Hindiston, Turkiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlardagi yirik

firmalar bilan investitsiyalar yuzasidan dastlabki muzokaralar olib borilib, tegishli masalalar bo'yicha kelishib olindi.

**1.2. Ta'lim sohasi.** 9 – asrning oxiri – 10-asrning boshlarida Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Xo'jand va boshqa shaharlarda vujudga kelgan yirik madrasalarda diniy hamda dunyoviy fanlardan oliy va o'rta ma'lumot berish amalga oshirilgan. Bu erda tarkib topgan oliy ta'lim tizimi keyinchalik Eron, İroq, Suriya, Kichik Osiyo, Misr va boshqa g'arb musulmon mamlakatlariga tarqalgan. Bunda ayniqsa Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, İbn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Nuriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, İmom at – Termizi, Al – Buxoriy, Zamaxshariy, Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmaddin Kubro va boshqa allomalarining ilmiy – amaliy ishlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Turkistonda dunyoviy oliy ta'lim tahsilini yo'lga qo'yish masalasida dastlab jadidlar ko'p harakat qilishdi. Xususan Munavvarqori Abdurashidxon tashabbusi bilan 1918 y. 21 aprelda Turkiston xalq universitetining musulmon bo'limi tashkil qilindi. Munavvarqori unda rais (rektor) bo'lib ishladi. Andijon, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona, Jizzax va boshqa shaharlarda universitetning bo'limlari tashkil etildi. 1920 y. Turkiston davlat universiteti (1923 yildan O'rta Osiyo davlat universiteti – SAGU, 1960 yildan Toshkent davlat universiteti – ToshDU) ta'sis qilindi. Un-t bazasida keyinchalik mustaqil oliy o'quv yurtlari, intlari tashkil topdi. Un-t o'lkada oliy ta'lim va fan taraqqiyotining bazasi bo'lib xizmat qildi. Birinchi o'quv yili universitetning 8 fakulteti (tibbiyot, texnika, harbiy, ijtimoiy – iqtisodiy, fizika – matematika, tarix – filologiya, ishchilar)bor edi. Universitet yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan birga yangi o'quv yurtlarining tashkil topishida ham muhim rol o'ynadi. 1929 – 31 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining ayrim fakultetlari asosida mustaqil oliy o'quv yurtlari tashkil qilindi. Universitet tarkibidan jami 15 oliy o'quv yurti ajralib chiqib, ular O'zbekiston, turkmaniston, Tojikiston hududlarida joylashtirildi. 1928 yil O'zbekistonda jami 3, 1940 yil 30, 1970 yil 38 oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi.

Sanoat taraqqiyoti O'zbekistonda yangi o'quv yurtlari tashkil qilishni taqozo etdi. Natijada Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti, Toshkent temir yo'l transport iva muhandislari instiuti, Toshkent elekrotexnika va aloqa instituti, Samarqand arxitektura – qurilish instituti, Farg'ona politexnika insituti va boshqa oldingi tashkil etilgan oliy o'quv yurtlari bilan bir qatordaxalq xo'jaligining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirdi.

1928 – 38 yillarda O'zbekistonda oliy maktab tubdan qayta qurildi. Ko'pchilik oliy o'quv yurtlari tegishli o'quv – metodik bazalar bilan mustahkamlandi. Mutaxassislar tayyorlash sifati va darajasi oshirildi. 1941 yil 1 yanvarda respublika xalq xo'jaligida band bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassislarning soni 19,9 ming kishiga etdi.

1941 – 45 yillardagi urush davrida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan birga xalq xo'jaligi uchun zarur ishlarini ham olib bordi. Urushdan keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari tarmog'i kengaydi. 1940-41 o'quv yili oliy o'quv yurtlariga 3,7 ming kishi kirgan bo'lsa, 1950-51 o'quv yili 12,7 ming, 1954-55 o'quv yili 19 ming kishi qabul qilindi. Mahalliy millat yoshlariidan o'qishga kiruvchilar soni nisbatan ko'paydi. 1946 yil bu ko'rsatkich 20 – 22% ni tashkil etgan bo'lsa, 1950 yil 49,6% ga, 1954 yil 58,8% ga etdi. 1940 yil respublika oliy o'quv yurtlarida 3296 kishi o'qib chiqkan bo'lsa, 1956 yili uni 9448 talaba bitirdi.

1978 – 79 o'quv yili O'zbekistonda 43 oliy o'quv yurti bo'lib, ularda 266,6 ming kishi o'qidi. Oliy o'quv yurtlarida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakli mavjud edi. 1978 – 79 o'quv yili kunduzgi bo'limlarda 142,7 ming, kechki bo'limlarda 37,2 ming, sirtqi bo'limlarda 86,6 ming kishi ta'lim oldi. 1969 yildan ko'pgina oliy o'quv yurtlarida tayyorlov bo'limlari ochildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning oliy maktablari chet el va xalqaro ilmiy markazlar, o'quv - ta'lim tuzilmalari bilan o'zaro foydali aloqlarni izlash va yo'lga qo'yishning printsiplarini mustaqil belgilash imkoniga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi qonuni oliy maktab yangilanish jarayonining, xalqaro ta'lif standartlarini oliy ta'limga joriy qilishning, yoshlarnio'qitishda o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan va ilg'or jahon tajribasidan foydalanishni kengaytirishning huquqiy asosi bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot ixtisosligiga katta ahamiyat berildi. Agar 1991 yili oliy o'quvyurtlarida 5 iqtisodiy ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlangan bo'lsa, 1995 yilda 24 oliy o'quv yurtida 60 ixtisoslikni o'z ichiga oluvchi 7 yo'nalish bo'yicha iqtisodchilar tayyorlandi. 1992 yilda iqtisodiyot mutassisligi bo'yicha talabalar O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalarining 2,5% ni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yilda 17% ga etdi.

Viloyatlar markazlarida tashqil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy – intellektual potentsialini va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Qarorda, jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, xalq t'limi vazirligi, tasarrufida oliy o'quv yurtlari bo'lgan vazirliklar va idoralar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qishloq xo'jaligi FA bilan birgalikda viloyatlarda tashkil etilgan oliy o'quv yurtlariga Toshkent shahri oliy o'quv yurtlarining hamda akademiya intlarning taniqli olimlarini hamda yuqori malakali o'qituvchilarini pedagogik va ilmiy faoliyat olib borish uchun, doimiy ishga besh yil mobaynida ularning lavozim maoshlariga 50% gacha miqdorda ustamalar belgilashni nazarda tutgan holda yo'llash; o'quv semestrlari davrida Toshkent shahridagi o'quv yurtlarining tajribali professor ham o'qituvchilarini lektsiyalar kurslarini o'qish va fan, texnika hamda texnologiya yangiliklari bilan tanishtirish maqsadida mintaqaviy oliy o'quv yurtlariga mehnat safariga yo'llashni amalda qo'llash kerakligi qayd etilgan.

Ta’limning yangi yo’nalishiga binoan oliy o’quv yurtlari tuzilishida ham tegishli o’zgarishlar bo’ladi. Ular quyidagi bosqichlardan iborat;

1 – bosqich – kollejlar – kichik mutaxassislar tayyorlash;

2 – bosqich – institutlar – kichik mutaxassislar, bakalavrlar va to’liq oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash;

3 – bosqich – universitetlar – turli ta’lim yo’nalishlari bo’yicha kichik mutaxassislar, bakalavrlar, diplomli mutaxassislar, shuningdek magistrler tayyorlash.

Respublika oliy o’quv yurtlarining ko’pchiligi o’zining ko’p nuxali vaqtli matbuotiga, ayrimlari esa o’z nashriyot va bosmaxonalariga ega.

Keyingi vaqtarda respublika oliy o’quv yurtlarining moddiyt – texnikaviy bazalarini mustahkamlash, axborot bilan ta’milish yo’llarini rivojlantirish maqsadida ular ta’limning zamonaviy texnik vositalari, yangi dasturlar, qo’llanmalar, darsliklar, ko’rgazmali o’quv qo’llanmalari va o’quv – metodik va adabiyotlar bilan ta’milanmoqda. O’quv yurtlarining mavjud kutubxonalari yangi o’quv adabiyotlari bilan, axborotnomalar - ma’lumotnomalar ko’rinishidagi adabiyotlar bilan boyitilmoqda. Toshkent arxitektura – qurilish instituti qoshida turli fan tarmoqlariga oid chet tillardagi o’quv adabiyotlarining oliy o’quv yurtlariaro respublika kutubxonasi ochildi.

Oliy va o’rta ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ko’p bosqichli mutaxassislar tayyorlash, kadrlar tayyorlash jahon tajribasi yutuqlarini O’zbekiston o’quv - ta’lim amaliyotiga joriy etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 31 iyuldagagi qarori bilan Oliy va o’rta maxsus maktab muammolari instituti tashkil etildi.

O’zbekistonning xalqaro ta’lim aloqalari kengaymoqda. Oliy va o’rta maxsus ta’lim nazirligi bevosita 20 mamlakat bilan hamkorlik qilmoqda. Ular orasida AQSh, Hindiston, Germaniya, Misr, Angliya, Frantsiya, Turkiya, İtaliya, Chexiya mamlakatlari bo’lib, ularning o’quv yurtlarida keyingi uch yil ichida O’zbekistonning 1960 fuqarosi (1683 talaba, 115 aspirant, 162 tadqiqotchi – o’qituvchi) ta’lim oldi.

Faqat 1995 yilning o’zida chet elga ta’lim olish, tadqiqot olib borish uchun va ilmiy xizmat safariga O’zbekistonning 1200 fuqarosi yuborildi. 1995y ilda 16 mamlakatda 754 talaba, 23 aspirant, 47 tadqiqotchi o’qidi. O’zbekiston oliy o’quv yurtlarida 30 mamlakatning 1000 dan ortiq fuqarosi ta’lim oldi. O’zbekiston oliy o’quv yurtlari chet el oliy maktablari bilan xamkorlik qilmoqdalar. Xususan Toshkent iqtisodiyot universiteti Jahon banki iqtisodiy taraqqiyoti instituti (Washington), Vena davlat xizmatchilarini o’qitish instituti (Avstriya), Buyuk Britaniya ochiq universiteti, Rossiya oliy tijorat maktabi, Vremen universiteti, Anqara universiteti bilan aloqa bog’lagan. Toshkent iqtisodiyot universiteti bunday aloqalarga tayanib, xodimlarga ta’lim berish, malakasini oshirish, qayta tayyorlashning yangi usullarini qo’llamoqda.

**1.3. Sport va madaniyat.** O’zbekiston zaminidan topilgani arxeologik yodgorliklar, tarixiy obidalar, qolaversa «To’maris» afsonasi, «Alpomish», «Go’ro’g’li», «Qirq qiz» va boshqa turkum xalq og’zaki dostonlarida ilgari surilgan g’oyalar bu erda jismoniy tarbiya qabila va urug’chilik davridayoq ken tarqalganligidan dalolat beradi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, İbn Sino, At – Termiziy va jismoniy tarbiya rivojiga katta hissa qo’shganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o’zining siyosiy – falsafiy qarashlarida jismoniy harakatlar bilan shug’ullanish zarurligini, bunday harakatlar insoniy baxtga erishishning asosiy omili ekanini aytgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishida Abu Ali ibn Sinoning alohida o’rni bor. U o’z asarlarida jismoniy mashqlarning inson rivojlanishi va salomatligidagi mohiyatini, tanani toza tutish, faol harakatlar bilan shug’ullanish, sayohat qilish inson kamolotining muhim omili ekanligini ko’rsatgna. İbn Sino jismoniy tarbiya har kimga moslangan bo’lishini, shug’ullanuvchining imkoniyat meyorida amalga oshirishi lozimligini ta’kidlagan.

Turli milliy jismoniy mashqlar, o’yinlar va musobaqalar: kamondan otish, nayza irg’itish, kurash, qilichbozlik, ot poygasi, ot sporti o’yinlari, shatranj

(shaxmat) O'zbekiston xalqlari turmushining an'anaviy tarkibiy qismi hisoblangan. O'zbekiston hududida akrobatlar va dorbozlar o'yini ham ommaviy tus olgan.

Jismoniy tarbiya xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi hisoblangan. U O'zbekiston hududida yashayotgan xalqlarning ma'naviy va jismoniy fazilatlarini sog'lomlashtirish va tarbiyalashga xizmat qilgan. Jismoniy tarbiya va harbiy san'at 14 – 15-asrlarda ancha rivoj topgan. Amir Temir olib borgan siyosat jamiyatning hamma sohalarida bo'lgni kabi jismoniy tarbiyaning mohiyatini yuqori bosqichga ko'tardi. Temuriylar davrida harbiylarni jismoniy tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Kurash, kamondan otish, ot sporti o'yinlari (uloq va boshqa) bo'yicha ko'pgina musobaqalar o'tkazilgan. Ot sporti o'yinlaridan chavgon harbiylar o'rtasida keng ommalashgan.

O'zbekiston qadimdan milliy o'yinlarga boy. Milliy o'yinlardan «Arg'imchoq», «Bekinmachoq», «Qilichbozlik», «Oq terakmi – ko'k terak», «Ololmaydi-yo, shuginani-yo», «Tortishmachoq», «Chillak» vaturalri keng tarqalgan.

Turiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin Evropa jismoniy tarbiyasi va sport turlari o'lkaga kirib kelishiga o'l ochildi. 1882 va 1894 yillarda Toshkent va Samarqandda chavandozlar jamiyatları tashkil topdi. 1895 yil Toshkentda Havaskor velosipedchilar jamiyati tuzildi. 1900 yili velosiped sporti havaskorlari va professional velosipedchilar musobaqalarini o'tkazish uchun maxsus maydon qurildi. 1904 yili Toshkentda Gimnastika va jismoniy mashqlar havaskorlari jamiyati tuzildi. 1905 yildan bolalar o'rtasida chopish, sakrash, halqa va koptik irg'itish bo'yicha musobaqalar o'tkazila boshladi. Bu Toshkentda sportning engil atletika turining rivojlanishiga asos bo'ldi. 1908 yil tsirklarda taniqli kurashchi va mahalliy polvonlar ishtirokida frantsuzcha kurash bo'yicha championatlar o'tkazildi. 1910 yili Toshkentda Harbiylar yig'ini binosida gimnastika-qilichbozlik maktabi ochilib, unda (asosan, rus ofitserlari o'rtasida) rapira, eskadron, qilichbozlik bo'yicha mashqlar va musobaqalar o'tkazib turildi. Ishchilarning dastlabki sport to'garakalari

1910 yili Toshkentda harbiy okrug shtabi bosmaxonasi matbaachilari tomonidan tuzildi. Ularda gimnastika, engil atletika va sport turlari bo'yicha sho''balar ishlab turdi. Daslab 1911 yili Farg'onada, keyinchalik tOshkent va Andijonda futbol komandasi tuzildi. 1913 yili Turkistonda eng yirik hisoblangan Sport havaskorlari jamiyatni tashkil etildi. Uning futbol, engil atletika, launtennis bo'limlari bor edi. 1915 yili Toshkentda gimnastika o'qituvchilari kursi ochildi. Dastlabki suv sporti turlari paydo bo'ldi. O'zbekistonda maktaboar, gimnaziyalar, bilim yurtlari va o'quv yurtlari o'quvchilarining harbiy va jismoniy tayyorgarligi ko'rigi bo'ldi. Umuman olganda 20-asrning boshlarida o'lkadagi jismoniy tarbiya jamiyatlari, maktab to'garaklari Turkistonga ko'chib kelgan rus va evropalik fuqarolarga xizmat qilgan. Sport musobaqalarida ham asosan ular ishtiroq etganlar. Shuning uchun ham ko'p musobaqalar, ko'riklar ommaviy tus olmas, buriy o'tiladigan jismoniy tarbiya darslaridan tashqari bolalar turli sport va sog'lomlashtirish sektsiyalariga, musobaqa va o'yinlariga qatnashadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar ertalabki badan tarbiya, gimnastikamashqlari bilan shug'ullanadilar, tanaffus paytlarida esa ko'z va qo'l mushaklarini mustahkamlash uchun turli mashqlar bajaradilar. O'zbekistonning ko'pgina maktablarida sport komandalari va sport sektsiyalari tuzilgan.

O'zbekistonda etakchi sportchilarni tayyorlashda va sportchi – havaskorlarni sport bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratib berishda sport maktablari muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich va o'rta maktablarda sport sohasi bo'yicha iqtidorli bolalar darslar tugagandan keyin, shuningdek yakshanba kunlari mashq qilish uchun maxsus sektsiyalarga qatnashadilar. Sport maktablardagi mashq'ulotlarni tajribali sport ustoz (trener)lari olib boradilar.

Respublikada 522 bolalar va o'smirlar sport maktablari bo'lib, ularda 245347 kishi sportning 50 turi bilan shug'ullanadi; 7606 murabbiylar, o'qituvchilar faoliyat ko'rsatdi (1996). Bulardan tashqari O'zR xalq ta'limi vazirligi tasarrufida 357 (192683 bola), kasaba uyushmalarining jismoniy tarbiya va sport ko'ngilli jamiyatni tasarrufida 114 (29620 bola), boshqa tashkilotlar ixtiyorida 51 (23044 bola) bolalar

va o'smirlar sport maktabi mavjud. Shunday sport maktablari shug'ullanuvchilari orasida 84669 ommaviy sport razryadli, 4492 1 – sport razryadli, 2524 sport ustaligiga nomzod, 737 sport ustasi, 101 xalqaro toifadagi sport ustasi bor.

O'zbekistonda sport kadrlarini, asosan O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, universitetlar va ped. Institutlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari va jismoniy tarbiya texnikumlari tayyorlaydi. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining tarkibida (1996): ped. trenerlik, sirtqi ta'lif, malaka oshirish fakultetlari, 23 kafedra, 2 laboratoriya hamda mehnat va sport fiziologiyasi muammolari laboratoriyasi) va boshqalar bor. Bulardan tashqari, institut qoshida 1993 yili O'zbekiston Olimpiya akademiyasi tashkil qilindi. Akademianing 16 a'zosi bor (Prezidenti – A.K. Hamroqulov). Akademiya o'z bayrog'i, nizom iva emblemasiga ega. 1994 yil O'zbekiston Olimpiya akademiyasi Xalqaro Olimpiya akademiyasi (Gretsiya) tarkibiga qabul qilindi.

Jismoniy tarbiya institutini, universitet va ped. institutlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari, jismoniy tarbiya texnikumlarini bitirgan mutaxassislar maktablarda jismoniy tarbiya fanidan dars beradilar.

**1.4. İjtimoiy qullab quvotlash.** İqtisodiyot rivojlanishi uning ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning bunday shakllari esa muayyan bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, u mohiyatan ijtimoiy va hududiy (geografik) mehnat taqsimoti xususiyatlaridan kelib chiqadi. Binobarin. Ularni bir – biriga mutlaqo teskari qo'yib bo'lmaydi, chunki katta yoki kichik, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish albatta ularni ma'lum hududda joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

İjtimoiy tashkil etish shakllari mujassamlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlik va kombinatlashuvdan iborot. Bular ham o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi va ko'pincha birgalikda sodir bo'ladi. Ularning asta – sekin takomillashib borishi, bir – birlari bilan uyg'unlashuvi fan – texnika taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishi bilan hamkorlikda yuz beradi.

Mujassamlashuv va ixtisoslashuv ishlab chiqarishni ijtimoiy (hududiy) tashkil qilishning nisbatan oddiyroq shakllari hisoblanadi. Biroq, ayni ana shu shakllarning o'zgarib borishi qolgan shakllar, ishlab chiqarish rivojlanish xususiyatlarga katta ta'sir etadi.

## Sayyoqlik sohasi

### 2.1. Turizm. Turizm rivojlangan shahar

O'zbekistonning ko'hna tarixi, qadimiy madaniy – me'moriy yodgorliklari jahon turistlarini hamisha o'ziga chorlab kelgan. Lekin sobiq İttifoq davrida tashqi mamlakatlar bilan turistik aloqalar va bu bilan bog'liq mablag' markaz ixtiyorida bo'lganligi sababli respublika iqtisodiyoti undan uncha naf ko'rmasdi. Natijada turizm ishi o'lkada jahon andozalari darajasiga ko'tarilmay, tashkiliy jihatdan orqada qoldi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng turizm ishini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yili 27 iyuldagagi farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi – «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tuzildi. U mamlakatda shu sohadagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar negizida yangitdan tashkil topdi. Milliy kompaniya O'zbekistonda sayohlikning huquqiy, iqtisodiy asoslarini shakllantirib, jahon andozalariga muvofiq keladigan sayyoqlik tizimini tarkib toptirib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar jalb etilib zamonaviy sayyoqlik majmualari qurilmoqda. Tarixiy - me'morchilik obidalari ta'mirlanishiga, ularni targ'ibot – tashviqot qilish ishiga ahamiyat berilmoqda.

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tarkibiga viloyatlardagi tizim tashkilotlari – mintaqaviy bo'linmalar, shuningdek «Otel O'zbekiston», «Shodlik» qo'shma korxonalari, «Sayohat», «Chorsu» tashqi iqtisodiy majmualari, «O'zintur», «O'zmaxsustur» hissadorlik jamiyatlari, «O'zbekturqurilish» tashqi iqtisodiy birlashmasi kirdi. 1993 yil Bali (İndoneziya) shaharda bo'lib o'tgan Butunjahon Turistik tashkiloti Bosh assambleyasi 10 – sessiyasida O'zbekiston Respublikasi

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Butunjahon Turistik tashkilotining to'la huquqli a'zoligiga qabul qilindi. Frankfurt, Moskva, London shaharlarida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

1995 yil «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi 458,4 mingdan ziyod kishiga, shu jumladan 92 mingdan ortiq xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatdi. Milliy kompaniya tizimida 22 mehmonxona, 8 turbaza, 2 kemping va 1 dam olish zonasini mavjud (1995).

O'zbekistonda Toshkent (2344 o'rinni), Samarqand (1021 o'rinni), Buxoro (1029 o'rinni), Urganch – Xiva (653 o'rinni) asosiy turistik markazlardir.

Avtotransport sayohati O'zbekiston Respublikada keng tarqalgan turizm turi hisoblanadi. Uning marshuratlari respublikaning barcha viloyatlari, turistik markazlardagi manzarali dam olish manzillari, qo'shni mamlakatlar bo'y lab o'tadi. Avtotransport marshrutlarida 1995 yilda 96 ming sayyohga xizmat ko'rsatildi.

Havo yo'llari sayohati marshrutlari O'zbekiston Respublikasining bir necha o'nlab shaharlari yo'nalishi, MDH mamlakatlari, shuningdek Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Eron, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabiston, Pokiston, Koreya, Gretsya, Tayland, Malayziya, Xitoy, Hindiston bo'y lab o'tadi. Bu marshrutlarda 1995 yil «O'zbekiston Havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining samolyotlari bilan 20 ming sayyohga xizmat ko'rsatildi.

Temir yo'llar marshrutlarida «Buyuk ipak yo'li» bo'y lab safar qilish, Markaziy Osiyo, umuman MDH davlatlari yirik shaharlari bo'y lab sayohat qilish mumkin. Bu marshurtda 1995 yilda 17,5 ming kishiga xizmat ko'rsatildi.

O'zbekistonda fuqarolarga turizmning quyidagi turlari bo'yicha xizmat ko'rsatiladi: madaniy sayr – tanishuv, sport – sayyohlik (chang'i sporti, velo va avtosayyohlik, qoya oshish, arxeologik, g'or sayri, tuyalarda sayohat), oilaviy sayyohlik; bolalar marshruti; talabalar marshruti; biznesmenlar uchun marshrut; davolanish – maqsadli marshrut; dam olish marshruti.

Turizm sohasidagi kadrlar Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent Mehmonxona xo'jaligi texnikumi, O'zbek-turk mehmonxona xo'jaligi, turizm litseyi va o'quv yurtlarida tayyorlanadi. 1995 yildan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida «Xalqaro turizm» fakulteti ochildi. Kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi huzuridagi Respublika o'quv majmuasi amalga oshiradi.

1994 yil oktyabrida Toshkent va Samarqandda Butunjahon turistik tashkilotining «Ipak yo'li» loyihasini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro yig'ilish bo'lib, unda O'zbekiston mazkur qadimiy yo'naliш (marshrut) markazi deb belgilandi. «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tomonidan «Ipak yo'li» o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab yo'naliшlar ishlab chiqilmoqda, ilgari o'rganilmagan memorchilik va arxeologik yodgorliklar aniqlanilmoqda. 1995 yil 2 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Buyuk ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avjoldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirdar to'g'risida farmon qabul qildi. Shu farmonga muvofiq g'oyat muhim xalqaro turizm yo'naliшi – Buyuk ipak yo'lini qaya tiklash, xorijiy sayyohlarni keng jalb etish, shuningdek mamlakatda zamonaviy turizm sanoatini vujudga keltirish maqsadida Buyuk ipak yo'lidi shaharlar – Samarqand, buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil qilish vazifasi qo'yildi va bu borada muhim tadbirdar belgilandi. Jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda turizm sohasida qo'shma korxonalar barpo etuvchi xorijiy sarmoyadorlarga muayyan imtiyozlar berildi.

**2.2. Dam olish maskanlari.** Dam olish rejimi muayyan tartibga salingan sog'lamlashtirish muassasalari. Dam olish uylari maxsus tibbiy kuzatuv va davoga muhtoj bo'lмаган sog'lam kishilar uchun mujallangan. Shu jihatdan mineral suvlari, shifobaxsh balchiq bilan davolaniladigan va fizioterapiya qo'llaniladigan sanatoriylardan faqt qiladi. Ayni vaqtida dam olish uylarida dam olayotganlarga zarur bo'lganda tibbiy yordam ko'rsata oladigan tibbiy xodimi bo'ladi. Dam olish uylarida

dam oluchilar uchun iqlimiyligi, gigienik hamda madaniy – maishiy xizmat kursatish sharoitlari, shuningdek to’la – to’kis ovqatlanish tarzi etiborga olinadi. Dam olish umumiyligi (kattalar uchun), maxsus (oylaviy yoimar uchun) bo’lishi mumkin. 2 kunlik, 12 kunlik va 15 kunlik dam olish uylari keng tarqalgan ularning ayrimlarida (platka, lager) dam olish turizm bilan kushib olib boriladi. Pansionatlar va dam olish bazalari ham mavjud.

## Xulosa

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jihatdan davlat sanitariya – epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariya – epidemiologiya stantsiyalari va aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy – metodik va muvofiqlashtiruvchi ishlarini olib boradigan «Salomatlik» markazlari ub vazifani amalga oshirmoqda. 1991 yili Toshkent diagnoz qo'yish bo'yicha respublika aholisiga xizmat ko'rsatuvchi «Diagnostika» markazi ishga tushirildi.

Aholi sog'lig'ini tekshirib turish va yuqumli hamda yuqumsiz kasalliklar bilan og'rish hollarini nazorat qilish, noqulay ijtimoiy muhit omillarini bartaraf etish, ayniqsa atrof muhitni sog'lomlashtirish tadbirlari izchil bajarib turiladi. Chunonchi, 1995 yil oxiriga kelganda katta yoshlilar, o'smirlar, bolalar dispanser nazoratida bo'ldi. Ishchilarga davolash – profilaktika xizmati ko'rsatish, xususan sanatoriy – profilaktoriylar tarmog'i kengaytirildi. Respublika «Salomatlik» markazi, uning viloyatlar va shaharlardagi shahobchalari radio va televideonie hamda matbuotdan foydalangan holda aholi o'rtaida sanitariya – gigienaga oid bilimlarni keng targ'ib qilib boradi. Toshkentda oliy va o'rta tibbiy o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari, tibbiyotga oid ilmiy asarlar, vrachlar uchun amaliy qo'llanmalar, sanitariya maorifi bo'yicha ommabop tibbiy adabiyotlar, lug'at va ma'lumotnomalar nashr etadigan Ibn Sino nomidagi nashriyot (1959 yili tashkil qilingan) ishlab turibdi. 1991 yildan ommabop «Sihat – salomatlik» jurnali (bosh muharriri Gabi Majidov) nashr etiladi.

Oliy va o'rta ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ko'p bosqichli mutaxassislar tayyorlash, kadrlar tayyorlash jahon tajribasi yutuqlarini O'zbekiston o'quv - ta'lim amaliyotiga joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 31 iyuldagagi qarori bilan Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari instituti tashkil etildi.

O'zbekistonning xalqaro ta'lif aloqlari kengaymoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bevosita 20 mamlakat bilan hamkorlik qilmoqda. Ular orasida AQSh, Hindiston, Germaniya, Misr, Angliya, Frantsiya, Turkiya, Italiya, Chexiya mamlakatlar bo'lib, ularning o'quv yurtlarida keyingi uch yil ichida O'zbekistonning 1960 fuqarosi(1683 talaba, 115 aspirant, 162 tadqiqotchi – o'qituvchi) ta'lif oldi. Faqat 1995 yilning o'zida chet elga ta'lif olish, tadqiqot olib borish uchun va ilmiy xizmat safariga O'zbekistonning 1200 fuqarosi yuborildi. 1995 yilda 16 mamlakatda 754 talaba, 23 aspirant, 47 tadqiqotchi o'qidi. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida 30 mamlakatning 1000 dan ortiq fuqarosi ta'lif oldi (1995). O'zbekiston oliy o'quv yurtlari chet el oliy maktablari bilan hamkorlik qilmoqdalar. Xususan Toshkent iqtisodiyot universiteti Jahon banki iqtisodiy taraqqiyoti instituti (Vashington), Vener davlat xizmatchilarini o'qitish instituti (Avstriya), Buyuk Britaniya ochiq universiteti, Rossiya oliy tijorat maktabi, Bremen universiteti, Anqara universiteti bilan aloqa bog'lagan. Toshkent iqtisodiyot universiteti bunday aloqalarga tayanib, xodimlarga ta'lif berish, malakasini oshirish, qayta tayyorlashning yangi usullarini qo'llamoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti 2002.
2. 3. Soliev A.S., Mahamadaliev R.Y. İqtisodiy geografiya asoslari. -T., 1996.
3. Baratov P. «O'zbekstan ta'biiy geografiyasi» Tashkent, 1996.
4. Saliev A. «Mintaqaviy iqtisodiyot» Toshkent, 2003.
5. G. Asanov, M. Nabixonov, İ Safarov «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi.
6. Saliev A.S., Ahmedov,.A., R.Y. Muxamashev E.A., Hokozo B. «Mintaqaviy iqtisodiyot».
7. Saliev A.S., Muxanadinov R.İ. «İqtisodiy geografik asoslari». T. 1996